

RISK TUSHUNCHASINING TARIXIY VA MADANIY ILDIZLARI

Rabbimov Jaxongir

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

rabbimov@outlook.com

+998941188340

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17254983>

Annotatsiya: Tezisdagi "risk" tushunchasining kelib chiqishi va evolyutsiyasi tahlil qilinib, uning italyanча risicare hamda arabча rizq soʻzlari bilan bogʻliq etimologik ildizlari yoritilgan. Gaspar Mairal, Federiko Korriente va Maykl de Epalza kabi olimlarning qarashlari asosida riskning diniy, madaniy va semantik jihatlari koʻrib chiqilgan. Amir Temurning "Temur Tuzuklari"dagi qaror qabul qilish tamoyillari zamonaviy risk-menejment bosqichlari bilan qiyoslangan. Shuningdek, A. Muavr va G. Leybnitsning statistik yondashuvlari riskni ilmiy oʻrganishga zamin yaratgani koʻrsatib oʻtilgan. Tadqiqot natijalari risk tushunchasining tarixiy meros va ilmiy izlanishlar orqali shakllanib, bugungi risk-menejment nazariyalari bilan uygʻunlashganini tasdiqlaydi.

Kalit soʻzlar: risk, rizq, tarixiy meros, Temur Tuzuklari, risk-menejment, statistik yondashuv.

"Risk" atamasi koʻpincha eski italyanча risicare soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, uning maʼnosi "jurʼat etmoq" sifatida talqin qilinadi. Ushbu mazmun insoniyatning kelajakka boʻlgan munosabatini va faoliyatida yuzaga kelishi mumkin boʻlgan taʼsirlarni oldindan koʻra bilish zaruratini ifodalaydi. Demak, tarixan insonlar oʻz faoliyatida kelajakdagi ehtimoliy jarayonlarni inobatga olib, barqaror va farovon hayot kechirishga intilganlar.

Shuningdek, ilmiy tadqiqotlar, ayniqsa Ispaniya Saragosa Universitetining ijtimoiy-antropologiya fanlari professori - Gaspar Mairalning "Riskning Dastlabki Madaniy Tarixi"¹ asarida, "risk" atamasining arabча rizq (رِزْق) soʻzidan kelib chiqqan boʻlishi mumkinligi fikrini ilgari suradi. Uning fikricha, "risk" atamasining ilk shakli - "rizq" - jamiyatning diniy eʼtiqodlari va Qurʼonda mavjud boʻlgan yozma hamda ogʻzaki anʼanalarda aks etgan tushuncha boʻlib, u nafaqat yaxshilik va baraka, balki yomonlik va sinovlarni ham ifodalaydi. Eng muhimi, bu tushuncha kelajakka qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Ispan Qirollik akademiyasi aʼzosi, ispan-arab lugʻati muallifi, arabshunos professor Federiko Korriente fikricha, "Risk" - fonetik jihatdan arabча "rizq" etimologiyasiga asoslangan holda koʻproq eʼtiborga loyiqdir, chunki yopiq boʻgʻinda /i/ tovushi ispanchada koʻpincha /e/ ga oʻtadi; maʼno jihatdan esa bu atama taqdir tomonidan berilgan barcha narsalarni anglatadi, yaʼni eʼtiqod jihatidan inson uchun u yaxshi ham, yomon ham boʻlishi mumkin.

Qolaversa, Maykl de Epalza kabi arabshunos olimlar rizq soʻzining Qurʼondagi maʼnolari (ilohiy taʼminot, Allohning berkitgan rizqlari, baraka) bilan zamonaviy "risk" atamasining ehtimollik va noaniqlik elementlari oʻrtasida semantik yaqinlik mavjudligini koʻrsatuvchi fikrlar ilgari suradilar.²

Ibn Arabiy (1165-1240) - Andalusiyalik buyuk shoir va faylasuf, rizq atamasini tavakkul, yaʼni Xudoga boʻlgan ishonch bilan bogʻlaydi.³

¹ <https://www.amazon.com/Historia-cultural-del-riesgo-modernidad/dp/841340469X>

² Mikel de Epalza - *Ibid.*

³ Ibn Arabiy. *The Book of Extinction in Contemplation (Tafakkurda fano)*. Tarj. va kirish soʻzi: A. Guijarro. - Malaga: Syrian Editorial, 2007. - 220 b.

Fransuz matematigi A. Muavr esa normal taqsimot va standart og'ish tushunchalarini fanga olib kirdi. Bu orqali kutilmagan ta'sirlarni oldindan bashorat qilishda statistik axborotning ahamiyati yuksak ekanligi tasdiqlandi. Shunday qilib, hayot va iqtisod qonuniyatlarini statistik tahlil qilish orqali riskni chuqur tadqiq etish imkoniyati paydo bo'ldi.

Qadimgi Sharq mutafakkirlari, jumladan Amir Temur, qaror qabul qilishda xatar va imkoniyatlarni solishtirish zarurligini alohida ta'kidlagan. "Temur Tuzuklari" asarida keltirilgan qarashlar bugungi kunda risklarni aniqlash, baholash va kamaytirish kabi zamonaviy risk-menejmentning asosiy bosqichlariga yaqin keladi. Shu bois, tarixiy merosni risk tushunchasining evolyutsiyasini yoritishda muhim manba sifatida baholash mumkin. Masalan, u o'zining "Temur Tuzuklari" asarida: - "Maslahatchilar va kengash ahli yig'ilganda, oldimizdagi ishlarning yaxshi-yomoni, foydayu ziyon tomonlari, ularni amalga oshirish, oshirmaslik haqida so'z ochib, (ulardan) fikr so'rar edim. So'zlarini eshitgach, ishning har ikki tomonini mushohada qilib, foyda-ziyonlarini ko'nglimdan kechirardim; uning xatarli tomonlariga ko'proq e'tibor nazari bilan qarardim; qaysi bir ishda ikki xatar mavjud bo'lsa, uni (bajarishdan) voz kechardim va bir xatarlik ishni ixtiyor etardim."⁴ Bu o'g'itni zamonaviy risk-menejment konsepsiyasi bilan bog'laganda:

- Amir Temur o'z maslahatchilari va kengash ahli bilan maslahatlashib, har bir ishning yaxshilik va yomonlik tomonlarini, foyda va ziyonlarini tahlil qilardi. Bu risk-menejmentning asosiy bosqichlaridan biri - xavflarni aniqlash va ularni tahlil qilishga muvofiq keladi.

- Uning foyda va ziyonlarni ko'rib chiqishi hamda ishning xatarli tomonlariga e'tibor qaratishi - bu risklarni baholash bosqichiga mos keladi. Risklarni baholashda ehtimoliy oqibatlar va ularning ta'sirini aniqlash muhimdir.

- Amir Temur ikki xatar mavjud bo'lgan ishdan voz kechib, bir xatarli ishni tanlashini aytib o'tgan. Mazkur qoida risklarni kamaytirish tamoyiliga muvofiqligini ko'rsatadi. Zamonaviy risk-menejmentda ham xatarlarni kamaytirish yoki oldini olish uchun kerakli choralar ko'riladi.

- Amir Temur maslahat va tahlil asosida qaror qabul qiladi. Zamonaviy risk-menejmentda ham asosiy maqsad tahlil va baholashdan keyingi eng ma'qul qarorni qabul qilishdir.

Amir Temurning bu kabi fikrlari shundan dalolat beradiki, risklarni aniqlash, baholash, kamaytirish va ular asosida qaror qabul qilish kabi tushunchalar faqatgina zamonaviy fan va biznes mahsuloti emas, balki tarixiy jihatdan ham mavjud bo'lgan. Temurning davlat boshqaruvi tajribasi risk-menejment nazariyasidagi asosiy prinsiplar bilan uyg'unlikda namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, Amir Temur qarashlari zamonaviy risk-menejment konsepsiyalaridagi xavflarni aniqlash, baholash va kamaytirish tamoyillari bilan uyg'unlikda namoyon bo'ladi.

Risk tushunchasining shakllanishi insoniyat taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi bilan bevosita chambarchas bog'liqdir. Mazkur atamaning iqtisodiyot faniga kirib kelishi esa daromad olish bilan bog'liq faoliyatda turli ta'sirlarning yuzaga kelishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. XVIII asrda nemis matematigi G. Leybnits katta sonlar qonuniyati va statistik jarayonlar nazariyasini ishlab chiqib, riskni ilmiy asosda o'rganishga yo'l ochgan. Keyinchalik Angliya hukumati aholining o'lim ko'rsatkichlari bo'yicha hisob-kitoblarni yurita boshlagach, statistik yondashuv butun Yevropa bo'ylab keng tarqaldi.

⁴ Amir Temur Tuzuklari

Yakuniy xulosa qilib aytganda, bu farazlar “risk” tushunchasining yagona lotin/italyan ildizi emasligini, balki madaniy-tarixiy kontekstda, O’rta yer dengizi mamlakatlari savdo shartnomalarida, arab savdogarlari orasidagi til almashuvlar orqali shakllanganini ko’rsatadi. Biroq, fonetik bog’lanish hamda ma’no uzatuvchi tarixiy hujjatlarning to’liq izchilligi hozircha aniq isbotlanmagan. Italyanacha “*risicare*” talqini va arabcha “*rizq*” semantik maydoni o’rtasidagi yaqinliklar ehtimoliy izoh sifatida qiziqish uyg’otadi, biroq bu bog’liqlikni qat’iy etimologik fakt sifatida qabul qilish shart emas. Amir Temur “Tuzuklar”ida ifodalangan maslahat - tahlil - qaror tamoyillari zamonaviy risk-menejment kontsepsiyalarining muhim bo’g’inlari bilan uyg’unlashadi. Yevropa statistik maktabining shakllanishi esa riskni ilmiy-idrokiy tahlil doirasiga olib kirgan. Mazkur tadqiqot ushbu tarixiy va semantik jarayonlarni birlashtirib, riskning bugungi nazariy talqinlariga chuqurroq kontekst beradi. Shu bilan birga, manbashunoslikni kengaytirish, qarama-qarshi dalillarni kiritish hamda qisqa metodik ta’rifni qo’shish ishning ilmiy ishonchligini yanada oshiradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Mairal, G. (2002). Historia cultural del riesgo: los orígenes medievales del término. Zaragoza: Universidad de Zaragoza.
2. Corriente, F. (1999). Diccionario de arabismos y voces afines en iberorromance. Madrid: Editorial Gredos.
3. De Epalza, M. (2007). Qur’ondagi rizq atamasi va uning semantik talqinlari haqida maqolalar to’plami. Alicante: Universidad de Alicante.
4. Ibn Arabiy (1165–1240). The Book of Extinction in Contemplation (Tafakkurda fano). Tarj. va kirish so’zi: A. Guijarro. - Malaga: Syrian Editorial, 2007. - 220 b.
5. Muavr, A. (1738). The Doctrine of Chances: or, A Method of Calculating the Probabilities of Events in Play. London: W. Pearson.
6. Leibniz, G. W. (1710). Essais de Théodicée sur la bonté de Dieu, la liberté de l’homme et l’origine du mal. Amsterdam.
7. Amir Temur (XV asr). Temur Tuzuklari. Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991-yilgi nashr.